

KUNJUT URUG‘INING LABORATORIYA SHAROITIDA UNUVCHANLIGINI ANIQLASH

DOI: <https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/QAXAI/1046>

Utepbergenova Aysuliu Rambergenovna

tayanch doktorant, Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Muminova Zulfiya Komilovna

E-mail: utepbergenovaaysuliw433@gmail.com

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti dotsenti,
q-x.f.n.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasining o‘rtacha sho‘rlangan tuproqlari sharoitida kunjutning Qora Shahzoda navini ekish muddati va me‘yorlari bo‘yicha o‘tkazilayotgan tadqiqotlarda urug‘larning laboratoriya sharoitida unuvchanligi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: . Kunjut, urug‘, laboratoriya sharoitida urug‘ning unuvchanligi.

KIRISH

Kunjut issiqsevar o‘simliklar jumlasiga mansubdir. Kunjut urug‘i ekilgandan so‘ng havo harorati 150C dan yuqori bo‘lganda unib chiqish boshlanib, 18-200C bo‘lganda baravj unib chiqa boshlaydi. Kunjutni me‘yoriy o‘sim rivojlanishi uchun eng maqbul havo harorati 23-250C hisoblanadi. Kunjut sovuqqa juda chidamsiz bo‘lib, unib chiqqan kunjut maysalari +2-30C havo haroratida ham nobud bo‘lishi mumkin [1].

Kunjut unib chiqqanidan keyin dastlabki o‘sim jarayoni juda sekinlik bilan kechadi. Bu albatta iqlim sharoiti bilan bog‘liq bo‘lib, unib chiqqan kunlarda havoning harorati 10-12 0Cga tushib ketsa ham u o‘simdan to‘xtashi mumkin. Kunjut maqbul muddatlarda ekilib, havo harorati meyoriy xolatda bo‘lganda ekilganidan so‘ng 3-5 kunda unib chiqishni boshlaydi. Unib chiqqan maysalar juda mayda va nozik bo‘lib, salgina noqulay ob-havo sharoiti yoki dastlabki qator orasiga ishlov berish jarayonida ehtiyot bo‘linmasa nobud bo‘lishi mumkin [3]. Kunjutning Qora Shaxzoda navi 2012-yilda O‘zbekiston Respublikasining qishloq xo‘jalik ekinlari davlat reestriga kiritilgan va sug‘oriladigan va lalmi yerlarda ekish uchun ruxsat etilgan. Qora Shahzoda navi ssp. bicarpellatum Hilt turiga mansub bo‘lib, o‘rtapishar, o‘sim davri sug‘oriladigan maydonlarda 100-110 kun, lalmi yerlarda 90 kun. 1000 dona urug‘ vazni 3-3,5 g, urug‘i tarkibida yog‘ miqdori 60%. Ekish uchun olingan urug‘likning sifati 2 sinf va undan yuqori bo‘lishi talab etiladi. Urug‘ unuvchanligi 90% dan yuqori bo‘lishi kerak [4].

Olingan natijalar va ularning tahlili. Ilmiy tadqiqot dasturi asosida 2026 yilning mart oyida “O‘simliklar genetik resurslari institutidan” kunjutning Qora shaxzoda navi urug‘lari olib kelindi. “O‘zbekiston Respublikasi ekologiya atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarish vazirligi huzuridagi Orolbo‘yi xalqaro innovatsiya markazi” laboratoriyasida kunjut urug‘larini unuvchanligini aniqlash uchun beshta tarorlikda 100 donadan urug‘ olinib, petri chashkasida tahlil olib borildi [2].

Urug‘lar unuvchanligini aniqlashda Petri chashkasini tagiga namlangan filtr qog‘ozi qo‘yilib, so‘ngra 100 donadan urug‘ oralari ochiq holda (bir-biriga tegmaslik uchun) ekildi. Petri chashkasidagi urug‘lar laboratoriyada termostatda 20 0C haroratda unuvchanligi o‘rganildi. Ekilgan vaqti, sanasi daftarchaga yozib qo‘yildi. GOST 12038-84 standarti talabi bo‘yicha kunjut (*Sesamum indicum* L.)



o‘simligi urug‘ining unuvchanligi 5 kunda to‘liq unib chiqib, urug‘larning o‘rtacha unuvchanlik darajasi 92,0-95,0 % ni tashkil qildi.

XULOSA

Kunjut qimmatli moyli ekin bo‘lib, oziq-ovqat va sanoat uchun muhim xomashyo hisoblanadi. Kunjutdan yuqori urug‘ hosildorligi yetishtirishda agroteknik tadbirlar bilan birga uning unuvchanligini o‘rganish asosiy omillardan biridir. O‘rganilgan tahlillarda kunjutning Qora shaxzoda navi urug‘lari laboratoriya sharoitida unuvchanligi 92,0-95,0 % ni tashkil etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Amanova M., Rustamov A., Allanazorova L. Kunjut urug‘chiligi va yetishtirish agroteknikasi bo‘yicha tavsiyanoma. Tavsiya, Toshkent, 2018. 3 b.
2. Методика государственного сортоиспытания сельскохозяйственных культур / Под ред. М.А. Федина. - М.: Госагропром СССР, 1985. - 269 с.
3. Чирков В.Н. Масличные культуры Узбекистана. Гос.издат УзССР, Ташкент, 1952. С.3-5.
4. Qishloq xo‘jalik ekinlari navlarini sinash davlat komissiyasining uslubiy qo‘llanmasi. Toshkent, 1989. 27-35 betlar.